

RESEARCH ARTICLE

The Role Of Translation And Editing In International Journalism (The Case Of India)

Mirvohid Khidayev

Master's student, Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan

Zilola Jalolova

Master's student, Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 226-228

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article explores the role of translation and editing in international journalism in a broad sense, focusing on translation processes, the interaction of language and culture, the responsibilities of translators and editors, and the transformation of the global media landscape, especially in the case of India.

KEY WORDS

international journalism, translation, editing, cultural transformation, global media, editorial policy, India, linguocultural compatibility.

INTRODUCTION

XXI asrda jahon axborot maydoni kundan kun globallashib borar ekan, tarjima jarayoni har bir jurnalist, muharrir va tarjimon uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Axborot vositalari turli madaniyatlar va tillarni bog'lab turuvchi ko'priq vazifasini bajaradi. Tilshunolar tomonidan tilning kommunikativ funksiyasiga ko'ra, jurnalistika tarjimon va muharrirning ko'nikma va kompetensiyasi bilan chambarchas bog'liqdir [1, 45]. Shu bilan birga, tarjima va tahrir o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik jurnalistik professional faoliyatning samaradorligini belgilaydi.

Hindiston kabi til jihatdan murakkab va ko'p madaniyatli jamiyatlarda jurnalistik tarjima keng miqyosda olib boriladi. Dunyo bo'yicha eng ko'p til so'zlashuvchilarga ega bo'lgan mamlakatlardan biri sifatida Hindiston tarjima bozorida rivojlangan vositalar, tarjimalarning turli shakllari va madaniyatlararo muloqot tamoyillari bilan ajralib turadi [3, 118]. Mazkur maqolada Hindiston misolida xalqaro jurnalistikada tarjima va tahrirning roli, til siyosati va

zamonaviy metodlar yoritiladi

Xalqaro jurnalistika turli millat va madaniyat vakillariga mo'ljallangan axborotni yetkazish faoliyatidir. Bu faoliyat media resurslari yordamida keng auditoriyaga axborotni tushunarli shaklda taqdim etishni talab etadi. Shu o'rinda tarjima – jurnalistik faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Tarjimaning vazifalari quyidagilardan iborat:

axborotning mazmuniy jihatdan aniqligini saqlash;

til va madaniyat o'rtasidagi tafovutlarni tekislash;

so'zning semantik ma'nosini asrash;

auditoriya qabuliga moslashtirish.

Xalqaro jurnalistikada qo'llaniladigan tarjima strategiyalari uch asosiy yo'nalishdan iborat:

1.To'g'ridan-to'g'ri tarjima – matn mazmunini literal tarjima qilish.

2. Adaptativ tarjima – matnni madaniy kontekstga moslash.

3. Erkin tarjima – mazmunga sodiq qolgan holda kreativ tarzda qayta yaratish.

Tarjima nazariyasida Venutining “Tarjimonning ko‘rinmasligi” tamoyiliga ko‘ra, tarjima qilinayotgan matn shunday qayta ishlanishi kerakki, original kabi tabiiy ko‘rinsin [7, 182]. Ammo xalqaro jurnalistikada ushbu tamoyil madaniy jihatdan muammolarga olib kelishi mumkin. Masalan, Hindistonda jurnalistik materialni ingliz tilidan hind tiliga tarjima qilayotganda ba‘zan so‘zlar yoki tushunchalar madaniy jihatdan o‘zgartiriladi.

Hindiston – dunyodagi eng ko‘p tilli mamlakatlardan biri bo‘lib, bu holat jurnalistik tarjima amaliyotiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Rasmiy manbalarga ko‘ra, Hindistonda 22 ta rasmiy til, 1652 ta sheva va 122 til mavjud [6, 32]. Shu sababli, jurnalistik tarjima jarayonida til tanlovi, auditoriya xususiyatlari va madaniy tafvutlar alohida e‘tiborga olinadi.

Hindiston jurnalistikasi quyidagi media platformalar orqali faoliyat yuritadi:

mahalliy gazetalar (hind, bengal, tamil, urdu va boshqalar);

ingliz tilidagi nufuzli nashrlar (The Times of India, Indian Express);

raqamli media (YouTube, Hindistan News Network);

xalqaro media hamkorliklari (BBC, Al-Jazeera, DW).

Tarjima jarayonida faqat til bilan ishlash yetarli emas, balki madaniy yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. Madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasida tarjima – bu madaniyatlararo ko‘prikdir. Shu sababli, siyosiy, diniy, ijtimoiy kontekstlarni tarjimada ifodalash madaniy moslashuvni taqozo etadi [4, 64].

Masalan, hind kino san‘ati va siyosiy islohotlar haqidagi maqolalarda siymolar, tarixiy tushunchalar va shahsiy ism-shariflarning tarjimasida madaniy transformatsiya zarur bo‘ladi. Hindiston matbuotidagi muayyan ijtimoiy voqealar tarjimasida tarjimon ko‘pincha madaniyatga moslashtirilgan ekvivalentlar yaratishga majbur bo‘ladi.

Tahrir jarayoni tarjima matnining mazmuniy va uslubiy jihatdan mukammal bo‘lishida asosiy rol o‘ynaydi. Muharrirlar nafaqat grammatik xatolarni tuzatadi, balki matnning kontekstual mosligini ta‘minlaydi. Tahrir jarayonining asosiy vazifalari:

matnning mantiqiylikni tekshirish;

terminologiya bilan ishlash;

faktlar aniqligini tasdiqlash;

stilistik va lingvistik moslikni ta‘minlash.

Hindiston jurnalistikasida tahrir jarayoni ko‘pincha ko‘p bosqichli tizim asosida amalga oshiriladi. Matn birinchi bosqichda tarjima qilinadi, keyingi bosqichlarda muharrirlar tomonidan tahrirlanadi va tasdiqlanadi. Misol tariqasida The Hindu gazetasining ingliz tilidagi maqolalari hind tilida talqin qilinishi jarayonida tahrir jarayoni yuksak aniqlik talab qiladi.

Zamonaviy jurnalistikada tarjima jarayoniga sun‘iy intellekt va avtomatlashtirilgan vositalar kirib kelmoqda. Google Translate, DeepL va boshqa tarjima vositalari jurnalistik matnlar tarjimasida qo‘llanilmoqda, ammo ularning cheklovlari mavjud. Tarjima vositalari ko‘pincha idiomatik ifodalar, kontekstual ma‘no va madaniy izohlar bilan bog‘liq muammolarga duch keladi. Shu sababli, tarjimonning funksiyasi yo‘qolmagan [8, 75].

Hindistonda raqamli media bozorining kengayishi bilan birga tarjima jarayonida multimedia vositalari, videomateriallar tarjimasida, subtitrlar va ovozli tarjima kabi yo‘nalishlar rivojlanmoqda. Ko‘pgina onlayn nashrlar, Youtube kanallari va podcast platformalari ko‘p tilli formatda faoliyat yuritmoqda.

Jurnalistik tarjimada etik masalalar ham alohida ahamiyatga ega. Tarjimon axborotni manipulyatsiya qilmasdan, xolis va haqqoniy tarzda yetkazishi kerak. Tarjima jarayonida:

manba va kontekstga sodiqlik;

millatlararo hurmat;

axborot xolisligi va neytrallik kabi tamoyillarga rioya qilinadi [9, 103].

Xalqaro jurnalistika doirasida ijtimoiy va siyosiy materiallar tarjimasida tarjimonning mas‘uliyati yanada kuchli bo‘ladi. Hindistonning siyosiy muhitida tarjima amaliyoti ba‘zan senzura, mualliflik huquqi va axborot manipulyatsiyasi kabi muammolar bilan bog‘liq bo‘ladi.

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt (SI) va avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari jurnalistika va tarjimonlik amaliyotiga jadal kirib kelmoqda. SI yordamida tarjima qilish jarayoni avvalgi yillarga nisbatan tezlashgan va ko‘plab xalqaro media platformalarida qo‘llanila boshlagan, jumladan, Google

Translate, DeepL, ChatGPT kabi tizimlar ko'p tilli axborot almashinuvini yanada qulaylashtirdi.

Sun'iy intellektning afzalliklari:

Tezkorlik: Bir necha daqiqada yuzlab matnlarni tarjima qilish imkonini beradi, bu xalqaro axborot oqimida vaqt tejilishini ta'minlaydi.

Keng qamrov: Ko'p tilli matnlarni tarjima qilishda SI ko'plab tillarni va lokal variantlarni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Takrorlanadigan vazifalarni avtomatlashtirish: Taglavhalar, subtitrlar va standart mavzularni tarjima qilish jarayonini osonlashtiradi.

Korporativ media tizimlar bilan integratsiya imkoniyati: Ko'plab xalqaro axborot tizimlari SI asosida ishlaydigan tarjima vositalarini o'z ichiga olgan.

Sun'iy intellektning kamchiliklari:

Kontekstual noaniqliklar: Murakkab madaniy va semantik ifodalarni SI tizimlari to'liq anglab yetolmasligi mumkin.

Ijodiy yondashuvning cheklanganligi: Adabiy ilmiy va jurnalistik matnlarda SI ko'pincha literal tarjimaga o'tadi.

Etik muammolar: Avtomatlashtirilgan tarjimalarda mualliflik huquqi, shaxsiy ma'lumotlar va noto'g'ri talqinlar bilan bog'liq masalalar yuzaga kelishi mumkin.

Til me'yorlarining buzilishi: SI tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar ba'zan grammatik, stilistik va leksik xatolarga ega bo'ladi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt jurnalistika va tarjima jarayonini optimallashtirishda kuchli vosita bo'lsa-da, uni insoniy nazorat va ilmiy yondashuv bilan uyg'unlashtirish zarur.

Xulosa. Jurnalistik tarjima – bu globallashtirish jamiyatda ma'lumot almashishning asosiy vositasidir. Hindiston misolida ko'rib chiqilganidek, ko'p madaniyatli va ko'p tilli jamiyatda tarjima va tahrir jarayonlari o'ziga xos murakkabliklarga ega. Lingvistik moslashuv, madaniy transformatsiya, zamonaviy texnologiyalar va etik yondashuvlar tarjimon va muharrirlar faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Xalqaro jurnalistika doirasida tarjima va tahrirning o'rganilishi, takomillashtirilishi va ilmiy asosda rivojlanishi o'z navbatida global axborot maydonini boyitadi. Shuning uchun har bir tarjimonning kasbiy va madaniy kompetensiyasi oshirilishi zarur.

REFERENCES

- [1] – Karasik, V. (2004). *Yazik sotsialnoy kommunikatsii*. Volgograd: Peremena..
- [2] – Belkin, I. (2015). *Jurnalistikada tahrirlash amaliyoti*. Moskva: MediaMir.
- [3] – Kumar, R. (2019). *Language and Media in India*. Delhi: Sage Publications.
- [4] – Sanjay, P. (2022). "Translation Ethics in Indian Journalism". *Journal of Media and Translation Studies*.
- [5] – Sharma, D. (2020). *Global News Practices in India*. New Delhi: Oxford University Press.
- [6] – Singh, A. (2018). "Multilingual Media Landscape in India". *South Asia Communication Journal*
- [7] Venuti, L. (2008). *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. London: Routledge.
- [8] Miller, T. (2020). *Digital Journalism and AI*. Cambridge: Polity Press.
- [9] Baker, M. (2001). *Translating Conflict: Ethics and Accuracy*. London: Routledge.